

Qo'qon davlat pedagogika instituti professori, filologiya fanlari doktori Qobilova Zeboxon taqrizi asosida

Jasurova Navruza Botir qizi

Toshkent viloyati, Zangiota tumani 28-sonli maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi,
Qo'qon DPIning erkin tadqiqotchisi.
Email: jasurovanavruza@mail.ru
Telefon raqami: +99891 295-49-61

AYOLLAR SHE'RIYATINING POETIK TILI VA ESTETIK QIMMATI

(Halima Ahmedova va Xosiyat Rustamova ijodi misolida)

Annotatsiya: Poetik nutq, badiiy asar tili kabi tushunchalarni biz eshitganmiz. Filologiya ta'limida til bilan bog'liq bo'lgan tushuncha qanchalar muhim bo'lsa, adabiyotshunoslik uchun ham bu termin ahamiyatlidir. Yozuvchi hayotni tasvirlar ekan, shoir o'zining tuyg'ularini bayon qilar ekan, albatta, poetik nutqdan foydalanadi. Badiiy asar tilining badiiylik, obrazlilik va ta'sirchanlik ko'lamini janr xususiyatlariga ko'ra, bir xil emas. Bu vositalar nisbatan poeziya tilida bo'rtibroq turadi. Shu jihatdan poeziya tili o'ziga xos til hisoblanib, bugungi kunda uning xususiyatlarini o'rganish masalasiga e'tibor tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada poetik leksikaning bir qancha uslubiy imkoniyatlari Halima Ahmedova va Xosiyat Rustamova ijodi misolida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: poetik leksika, arxaik so'z, poetik forma, okkozialan so'z, an'anaviy so'z, poeziya.

Poeziya tili, shu tilni o'ziga xos ajratib qo'yuvchi bir qator xususiyatlarga ega. Avvalo, bu xususiyatlar poeziyaning mohiyatidan kelib chiqadi. Poeziya mohiyatan turli ifoda usullariga, badiiy tashbehlariga asoslanuvchi obrazli, ta'sirchan ifoda vositasidir. Obrazlilik va ekspressivlik ko'lamining poeziyada bo'rtibroq turishi ham bevosita she'riyatning tasviriy vositalarga asoslanishi, fikrni lo'nda, ifodali va ixcham formada ifodalanishi samarasidir¹.

Umuman olganda poetik leksika hozirgi poeziya tilida faol qo'llanilib, ma'lum bir uslubiy imkoniyatlarni vujudga keltiruvchi bir qancha leksik qatlamlardan tashkil topgan. Bular:

1. An'anaviy so'zlar:

a) arxaik so'zlar: anduh (g'am), ag'yor (begona), bahr (dengiz), gardun (osmon), dudog' (lab), yonoq (yuz), kamand (sirtmoq), dahr/dayr (dunyo), boda (may), kishvar (mamlakat), mohro'y (oy yuzli), mubham (noaniq), uzor (yuz), farax (xursandlik), faryod (nola chekmoq), shams (quyosh), g'addor (sotqin), g'orat (talon-toroj qilish), hajr (ayriliq), qomar (oy) va boshqalar;

b) ramziy ma'no ifodalovchi tradision poetik so'zlar: sarv(qad-qomat), sunbul (soch), g'uncha (lab), qalamqosh, gul (yor, yuz), mahvash mohrui, mohitobon, mohtob (yor), andalib (oshiq), kabutar (yaxshilik) va boshqalar;

2. Sof poetik so'zlar: alvido, asriy, aro, boqiy, beshak, butkul, vido, diyor, zakiy, zavol, zarrin, lol, nolon, nigoron, nido, nigoh, nogoh, otash, og'ush, sabo, samo, sarxush, siyna, tug'yon, shavq, shodon, fido, g'amza, ulug'vor, xayolot, xotiro, tuyg'u, xushnud va boshqalar.

¹ Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990 –Б. 11

3. Poetik nutq jarayonida vujudga kelgan okkozional xarakterdagi soʻzlar: bahoriy, zafarbaxsh, baxtnoma, daryodil, dardkash, sevinchbaxsh, sernoz, ishqiy, oʻlkadosh, jahannamiy, rutubatli, xotiro, kuzak, gʻururdosh, yelkadosh, gʻolibiyat, yovyurak, hiloliy, quyoshiston, qoʻldosh, qizillanar, qaygʻudosh, qadamdosh va boshqalar.

4. Soʻzlarning poetik formalari: gar (agar), lek (lekin), chun (uchun), ila (bilan), abad (abadiy), nechun (nima uchun), netmak (nima qilmoq), nedur//nadur (nimadir), bu kun (bugun), qay (qaysi), qayga (qaerga), albat (albatta) va boshqalar.

5. Soʻzlarning morfologik variantlari: aytajak, aylagil, borur, borajak, topgay, yozajak, olajak, olgay, kelmish, topmish, borgali, borarkan, yurarkan va boshqalar². Poetik soʻzlarni leksik qatlam sifatida ajratish va uni maxsus oʻrganish masalasining muhim va dolzarbligini B.Umurqulov oʻzining “Poetik nutq leksikasi” deb nomlangan monografiyasida quyidagicha izohlaydi.

a) poeziyada ishlatilgan leksik vositalardan bir qatori boshqa janrlarda kam ishlatiladi;

b) poetik soʻzlar badiiy taʼsirchanlikni, tantanali, obrazlilikni oshirish xususiyatiga ega boʻlib, boshqa nutqda baʼzan bu xususiyatlar sezilmaydi.

c) Poetik soʻzlar emotsional-obrazlilikka, poetik koʻtarinkilikka ega boʻlib, boshqa janrlarda qoʻllanilganda soʻzning emotsional-obrazliliigi susayishi yoki poetik nutqdagidek chiqmasligi mumkin;

d) Poetik soʻzlar oʻziga xos leksik-semantik, stilistik xususiyatlarga ega boʻlib, ularning bu qirralari koʻproq sheʼriy nutqdagina ochiladi³.

Poeziya anʼanaviylikka asoslanishi sababli, ijodkorlarimiz ijodida jumladan Halima Ahmedova sheʼrlarida adabiy til nuqtai nazaridan arxaik soʻzlar ancha faol qoʻllanilganligiga guvoh boʻlamiz:

Xayol kengliklari yashil va qoʻngʻir

Sogʻinch bogʻlarida mudraydi kunlar

Qovjiragan erta tashnaligida

Tomirda xalloslab chopadi **xunlar**⁴.

Xunlar soʻzi bu oʻrinda qofiyadoshlikni taʼminlash uchun qoʻllanilgan. Bu soʻzning hozirgi tilimizdagi muqobili (qon) ushbu misrada oʻz vazifasini bajarsada, lekin ritmik kompozitsiyani buzadi. Poeziya tilida uchraydigan shu kabi adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan bir qator leksik vositalar hozirgi oʻzbek poeziyasida faol qoʻllanilib, poeziya tilining tantanavorligi, koʻtarinkiligini taʼminlaydi:

Ey, zulmatni nurga aylantiruvchi

Iymon kengligida surguvchi hayol

Sochib tashlaganman sening poyingda

² Ўша китоб. Б. 15

³ Ўша китоб. Б. 16

⁴ Ahmedova H. Yashil.-Toshkent:Oʻzbekiston, 2016. B.16

Yashil kundan qolgan **gardman**, ehtimol⁵.

Yoki:

Tunning daraxtida pishgan olmalar –

Yulduzlar hididan aylanan boshim...

Agar, oshiq bo‘lsang **miskin** jonimga,

Ko‘nglingga kelmasin achchiq ko‘z yoshim⁶.

Yoki:

Ko‘zingda g‘arq bo‘lsam, menmi gunohkor,

Ko‘nglimda do‘st yashar, jonimda **ag‘yor**,

Kuzakning bag‘riga haydasa bahor,

Sening mushtoqliging menga ayondir,

Mening tuproqligim senga ayonmi?⁷

An’anaviy so‘zlarning she’riyatda uslubiy funksiya bajarishi umumnutqiy sinonimlari bilan yonma-yon qo‘yilgandagina yanada yaqqol ko‘rinadi. Va ba’zi hollarda sinonimlar ma’no ifodalash xususiyati darajasiga ko‘ra teng kelmaydi. Holbuki, ayrim so‘zlar ma’no yoki ma’no nozikliklari jihatidan o‘z sinonimlaridan farqlanadi. Masalan: ag‘yor, g‘anim so‘zlari “dushman” ma’nosiga ko‘ra bir sinonimik qatorni tashkil qiladi. Shuningdek, ag‘yor so‘zida “begona”, “raqib” ma’nolari, g‘anim so‘zida qo‘shimcha “qarshi tomon” ma’nosi mavjud.

Yoki ayrim an’anaviy sinonimlar ma’nosiga ko‘ra farqlanmasada, ma’nodagi belgi darajaning ortiq-kamligi bilan qisman farqlanadi. Masalan: giryon — faryod — fig‘on so‘zlaridan giryon so‘zi shu so‘z ma’nosidagi—belgi-darajaning kuchliligi bilan ajralib turadi, faryod so‘zi ma’nosidagi belgi-daraja fig‘on so‘ziga nisbatangina kuchli⁸:

O, nurlar kaftida sharbatga to‘lgan,

Qalblar mevasini simirgan **faryod**,

Ko‘changda sargardon kezar gadolar,

To hanuz ko‘nglingni topolmay,

Hayot.

⁵ Ahmedova H. Umid soyasi.-Toshkent: Nihol,2008. B.8

⁶ Ahmedova H. Umid soyasi.-Toshkent: Nihol, 2008. B. 6

⁷ O’sha kitob. B. 11

⁸ Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990 –Б. 20

An'anaviy soʻzlar poetik tilda hech qachon eskirmaydi. Shoirimizning ijodiy yondashishi natijasi tufayli soʻzlarning yangi qirralari, ma'no ifodalash xususiyatlari kashf etib borilaveradi. An'anaviy soʻzlar davrning, zamonning ruhiga mos yangi mazmunga ega boʻlishi mumkin, shunda ham an'anaviy xususiyatlarini doimo saqlab, hamisha badiiylikka xizmat qiladi. Umuman, an'anaviy soʻzlar B. Umurqulov taʼbiri bilan aytganda, hozirgi oʻzbek poeziyasi tilida ancha faol boʻlib birinchidan poeziya tilining obrazlilikini, ifodaliligini, poetik nutqning tantanavorligini kuchaytirishga xizmat qilsa, ikkinchidan an'anaviy soʻzlar shaklan va mazmunan poeziya tiliga mos boʻlib, she'riy texnika mosligini ta'minlaydi.⁹

Haqiqiy shoir san'atkor sifatida oʻzining poetik tilida soʻz ayta olmogʻi kerak. Agar shoirning poetik nutqini tushunsak, shu nutq “ichiga kira olsak”, uning sezimlarini, tuygʻularini, ichki konfliktlarini tushunamiz. Sheʼrlarni tahlil qilishda davom etar ekanmiz, tadqiqotimiz vakillari sheʼriyatga yangi tashbehlar, obrazlar olib kirish bilan birga, yangi soʻzlar ham olib kirishganiga guvoh boʻlamiz. Bunday soʻzlar tilimizda mavjud boʻlmagan tushunchalarni ifodalaganidek, shoirlar ijodida tilda mavjud biror tushunchani poetik nutqqa moslab ifodalash uchun ham qoʻllanilgan. Poetik nutq jarayonida paydo boʻlib, nutqning boshqa shakllarida qoʻllanmasligi bilan xarakterlanuvchi (okkozial) soʻzlarni quyida qanday yasalganligini tahlil qilib chiqamiz:

Qay tong edi, manga otash nafas qilding,

Nigohingda yer-u osmonni mast qilding,

Ajab, qaysar ruhim **samoparast** qilding,

Tugʻyoningdan dur toʻkildi, nurli ummon.

Ijzat ber, oʻshal durda boʻlay pinhon¹⁰.

Yoki:

Va yana **dunyoboz** quyosh chiqadi

Tanholik dardidan zerikib, esnab.

Vaqtning tirnoqlarin qonatadi boz,

Oʻlgan ishqning eski yarasin tirnab¹¹.

Yuqoridagi misralarda ot negiziga -parast, -boz qoʻshimchalarini qoʻshish bilan xarakter-xususiyat bildiruvchi poetik sifat yasalgan. Poetik nutq jarayonida vujudga kelgan bu xildagi leksik vositalar nutqiy ehtiyoj tufayli yaratilib, voqea-hodisani orginal ifodalash imkoniyatini beradi. Shu jihatdan ham okkozial soʻzlar poetik nutqning xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim birliklar qatoriga kiradi. Shoira H.Ahmedovaning “Oʻzimga maktub” sheʼrida

...Esingdami, qishloq, bolalik...

Paxsa devorni

Ot qilib minguncha kuylardi har kun

⁹ Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990 –Б. 27

¹⁰ Ahmedova H. Tashbek.-Toshkent: Akademnashr, 2017- B.19

¹¹ Ahmedova H. Yashil.-Toshkent: Oʻzbekiston, 2016. B. 63

Tiliga kelganin kir-chir devona.

U derdi: “dunyo, dunyo – **azobxona**,

Meni nega tug‘ding, ona?”¹²

misralarida bir devonaning lirik qahramon bolaligida uylarida mavjud bo‘lgan paxsa devorga minib olib, xirgoyi qilish jarayoni tasvirlangan. Bu parchadagi hamma so‘zlar umumnutqiy bo‘lib, **azobxona** shoiraning individual uslubiga xos so‘zdir. Garchand xona so‘zi yordamida yasalgan dardxona, ko‘zyoshxona so‘zlari boshqa ijodkorlar ijodida uchrasada, ifoda xususiyatiga ko‘ra bu so‘zlar farqalanadi. Shoirazobxona so‘zini “insonlar isteqlomat qiladigan joy” tushunchasi sifatida ishlatgan. Ammo H.Ahmedovanning bu so‘zga alohida urg‘u berganligi seziladi. Ijodkor ta‘riflayotgan xona shunchaki xona emas, balki dard, alam va isyonga burkangan bir g‘amli go‘sha ya‘ni dunyo.

Demak, okkozial so‘zlar nutqiy ehtiyoj sababli vujudga keladi. Bunday leksik vositalarning poetik nutqda tez-tez uchrashi shu nutqning xususiyatlari tufaylidir. Ko‘rib turganimizdek, she‘riy matnlarda uchraydigan okkozial so‘zlar asosan, yasovchi qo‘shimchalar hamda so‘zlar qo‘shish orqali morfologik yoki sintaktik usulda hosil bo‘lgan. Bu kabi so‘zlar nutq jarayonida muhim uslubiy vazifa bajarganidek, tilning leksik qatlamini ham boyitib boradi.

Ijodkor yangi so‘z yasashda o‘z ifoda usulidan kelib chiqib, so‘z yelkasiga ma‘lum bir mas‘uliyatni yuklaydi. Yangi so‘z qo‘llashda ijodkor ma‘lum maqsadlarni ko‘zda tutgan bo‘ladi. Biror ijodkor tomonidan qo‘llangan so‘z boshqa ijodkorlar tomonidan takror qo‘llanilmasa, shu kontekstga xos bo‘lib qolaveradi. Bunday so‘zlar individual okkozializmlar deyiladi. Biror ijodkor tomonidan qo‘llanilgan yangi so‘z boshqa ijodkorlar tomonidan qo‘llanilsa, bunday so‘z okkoziallik doirasidan chiqadi¹³. H.Ahmedovanning individual uslubiga xos so‘zlardan yana biri **nozbo‘y** so‘zi bo‘lib, bu so‘zni okkozial so‘z sifatida talqin qilishga shoshmadik. Sababi bu so‘zga faqatgina H.Ahmedova ijodida takror-takror duch kelsak ham (bir qaganda nozbo‘y so‘zi okkozial so‘zga o‘xshasa ham, bu qo‘shma so‘z, faqat umumnutqiy emas) bu shunchaki ijodkorning o‘ziga xos topilmasi. Biz bu muammoga shu nuqtai nazardan yondashsak maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘yladik. Ushbu so‘zning etimologiyasiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, nozbo‘y so‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, “rayhonday yoqimtoy”, “yoqimli”, “nafis”, “jozibali”¹⁴ degan ma‘nolarni anglatadi. Shoiraning ijodida esa **nozbo‘y** so‘zi rayhon tushunchasini ifodalab kelganiga guvoh bo‘lamiz:

Va yodimga tushar yana qo‘shni yigitning

Devor osha uloqtirgan sevgi nomasi

Unda **nozbo‘y** va yalpizning hidi bor edi

Va kelardi undan turfa qushlarning sasi¹⁵.

Yoki:

Shodlik bu-saboda tebrangan **nozbo‘y**,

¹² Ahmedova H. Tashbeh.- Toshkent: Akademnashr, 2017. B.36

¹³ Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990 – Б. 50

¹⁴ Qarang: <https://ismlar.com/name/Nozboy>

¹⁵ Ahmedova H. Yashil.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016.-B.105

Ishq-daraxt yaprog‘in o‘payotgan nur¹⁶.

Yoki:

Nega men o‘xshayman noma‘lum songa

Yoki kelmadimmi hali dunyoga?

Nozbo‘ylar mast bo‘lib kuylagani chog‘,

Nechun intilaman olis samoga?¹⁷

Yoki:

Yuragim shamolga o‘yinchoq...

Ruhimning ko‘ylagi yirtilgan.

Nozbo‘ylar ko‘ziga qarayman,

Ko‘zlarim nenidir yitirgan¹⁸.

So‘z qo‘llashdagi shu kabi o‘ziga xoslik ijodkorning uslubini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Gohida ijodkor qiyofasini uning she‘rlarini o‘qib ko‘z oldimizga keltirish mumkin bo‘ladi. Xosiyat Rustamova tabiatan o‘ta ta‘sirchan ijodkor. Va tabiiyki undagi bu xususiyatlar ijodida ham namoyon bo‘ladi. Shoirira his-hayajon ifodasini beruvchi “O” tovushini she‘rlarida juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llashi o‘ziga xos poetik individuallik kasb etgan:

Men Vatan quraman –jon-u dil, ruhim

Zaminga tosh kabi boradi singib.

O, shunday Vatan-u mening hududim

Butun yer shariga turar ko‘rinib¹⁹.

Yoki:

O, qaylarga ketmadi uchib,

Qayerlarga qo‘nmadi bu qush.

Yerni quchib, falakni quchib –

¹⁶ Ahmedova H. Tashbeh.- Toshkent: Akademnashr, 2017. B.38

¹⁷ Ahmedova H. Yashil.-Toshkent: O‘zbekiston, 2016.-B.126

¹⁸ O‘sha kitob. B. 45

¹⁹ Rustamova X. Ishg‘ol. -Toshkent: Akademnashr, 2011.–B. 128

Tinch yashashga qo‘ymadi bu qush²⁰.

Yoki:

O, menga kammidi ko‘rgan bu kunim,

Qop-qora sochimni qoplaganda qor.

Seni tushlarimda ko‘rib chiqqanim

Erta bu dunyoga bo‘larmi oshkor²¹.

Yoki:

O, yana uch soat uchamiz GOA –

Naqadar chiroyli...

Go‘zal naqadar –

Meni hal-beri qo‘ymas xotira –

Hech qachon esimdan chiqmas bu shahar²².

Yoki:

Nima sabab, **o**, ne sabab yuz-ko‘zingdan

Xiyonatkor kimsaga hech o‘xshamaysan.

Odam bo‘lsang, jur‘at topib Sen o‘zingda –

Ko‘ksingdagi toshni to‘kib tashlamaysan²³.

Yoki:

Qo‘y majbur qilmagin qasam ichishga,

Sevasanmi meni, dema, so‘rama.

O, tayyor turibdi hozir cho‘kishga

²⁰ O‘sha kitob. B. 111

²¹ O‘sha kitob. B. 103

²² O‘sha kitob. B. 76.

²³ O‘sha kitob. B. 68

Bag‘ringda baxtiyor chayqalgan kema²⁴.

Xosiyat Rustamova she‘rlarida o‘zbek xalqining milliy koloritini belgilab beruvchi bir qancha lisoniy birliklarni ham uchratishimiz mumkin. Shoira xalqona iboralar, maqollar va matallarni she‘riy misralari orasiga singdirib yuboradi. U she‘rlarni o‘qigan kitobxon beixtiyor ijodkorning poetik olamiga ipsiz bog‘lanadi:

O, qanchalar bo‘lmasin zarur,

Topolmadik uning davosin,

Qo‘shnimizning iti qurmagur

Oyoq kiyimlarning shaydosi.

Birov kelsa, behuzur joning!

Yashirasan kalishlarini.

Shunda anglab qoldim itlarning

Oyog‘ingdan chalishlarini²⁵.

Gohida hayotda do‘st yoki yaqin kishilarimizning xiyonatiga duch kelsak, “itlik qildi”, “oyog‘imdan chaldi” kabi iboralarni qo‘llab nutqimizni bo‘rtiramiz. Ma‘lum bir ma‘noda it obrazi xiyonatkor insonga muqoyasa qilinadi. Yuqoridagi misralarda shoira husni talil san‘ati orqali jamiyatimizda uchrab turadigan ayrim bir kimsalarning xatti-harakatlarini qoralaydi. Bir so‘z bilan aytganda muvaffaqiyatga uchrayotgan yaqinini obro‘sizlantirish uchun panada payt poylab turadigan hasadgo‘y, yaxshilikni bilmaydigan kishilarni qo‘shning iti misolida obrazli tasvirlaydi.

Xalqning o‘zidan olib o‘ziga berishni uddasidan chiqish uchun ijodkorga yuksak mahorat, hayotiy tajribaning o‘zi yetarli emas, har qanday maqol va iboraning o‘rinli qo‘llanishida sinchkovlik muhim. Xosiyat Rustamova she‘rlarida ana shu sinchkov nigoh bo‘y-basti bilan o‘zini oshkor qiladi:

Ozroq chida, umrimning, Hayot,

Yashab qo‘ydim ko‘proq qismini.

O, qadimdan degaylar-ku: “Ot

Ko‘taradi ot tepksini”.

Qanot chiqarguncha to yelkam,

Charchaguncha yugur-yugurdan...

G‘ururim bor!

Bir umr men ham

²⁴ O‘sha kitob. B. 62

²⁵ O‘sha kitob. B. 24

Senga tushib qolmagandirman?...²⁶

Yoki:

Ko'kda hali borayotir jang,

Hali ko'pdir tunning uyumi.

Shu jimgina otayotgan Tong –

Boshga solar itning kunini²⁷!

Yoki:

Necha bor qor yog'di-iz bosilmadi,

Itlar huraverdi, o'tmadi karvon.

Ming yilki, bu odam sabr qiladi,

Vo darig' oltinlar topilmas hamon²⁸.

Xalqimizda “qorlar yog'ib-izlar bosildi”, “it hurar-karvon o'tar”, “sabrning tagi sariq oltin” kabi ibora va maqollar mavjud. Lekin yuqoridagi misralarda ijodkor aynan shu ibratli fikrlarni teskarisini qo'llaydi. Va mantiqsizlikdan ham chiroyli bir ifoda va topilma yaratishga muvaffaq bo'ladi. Ba'zi hollarda inson boshga tushgan kunlariga ko'nikib yashayvermasdan isyon qilishi kerakligini, sabrning tagida doim ham mukofot bo'lmasligini ta'kidlaydi. Ushbu misralarda hayot ba'zan haqiqatdan ham adolatsiz ekanligi ko'rsatilgan. Biroq biz doimo o'zimizdagi hamma narsadan zavq olishimiz kerak.

Tahlillarimiz davomida ayol ijodkorlarimiz tafakkur tarzida o'zbek tilining shirali, serbo'yoq, tarovatli, purhikmat boyliklari namoyish topyotganiga guvoh bo'lamiz. Shoiralarimiz she'rlari birgina ayol qalbining nozik kechinmalaridan emas, balki umumbashariy dardlardan iborat bo'lgan poetik kashfiyotlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Қуроноу Д. Адабиётшуносликка кириш. – А.: Ҳаёт нашриёти, 2002.
2. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.Фан,1983.
3. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990
- 4.https://t.me/xosiyat_rustamova
5. Rustamova X. Najot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003.
6. Rustamova X. Devor. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2006.
7. Rustamova X. Rido. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
8. Rustamova X. Ishg'ol. –Toshkent: Akademnashr, 2011.

²⁶ O'sha kitob. B. 138

²⁷ Qarang: https://t.me/xosiyat_rustamova

²⁸Yuqoridagi havolada.

9. Ahmedova H. Umid soyasi. – Toshkent: Nihol, 2008.
10. Ahmedova H. Yashil. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
11. Ahmedova H. Tashbeh. – Toshkent: Akademnashr, 2017.